



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MOLiyAVIY RISKLAR TAHLILI

PhD Bektemirov Abduxamid

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-1180-1975

bektemirovabduhamid@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklarning mazmuni, tarkibi, manbalari va ularni tahlil qilish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida uchraydigan asosiy moliyaviy risklarni tizimlashtirish, ularni baholashning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish va amaliy boshqaruv mexanizmlarini taklifetishdan iborat.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy risk, likvidlik riski, kredit riski, foiz stavkasi riski, valyuta riski, moliyaviy tanglik, kredit cheklovi, savdo krediti, pul oqimi, qarzdorlik, stress-test, risk tahlili.

АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ РИСКОВ У СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

PhD Бектемиров Абдухамид

Самаркандский государственный университет

имени Шарофа Рашидова

Аннотация. В статье исследуются сущность, структура и источники финансовых рисков в деятельности субъектов предпринимательства, а также механизмы их анализа. Цель исследования заключается в систематизации ключевых финансовых рисков, выявлении теоретико-методологических основ их оценки и разработке практических рекомендаций по совершенствованию механизмов управления ими.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, финансовый риск, риск ликвидности, кредитный риск, процентный риск, валютный риск, финансовая неустойчивость, кредитные ограничения, торговый кредит, денежные потоки, задолженность, стресс-тестирование, риск-анализ.

ANALYSIS OF FINANCIAL RISKS IN BUSINESS ENTITIES

PhD Bektemirov Abduxamid

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract. This article elucidates the essence, structure, and sources of financial risks within business entities, alongside the mechanisms for their analysis. The study aims to systematise the primary financial risks encountered in business operations, reveal the theoretical and methodological foundations of their assessment, and propose practical management frameworks.

Keywords: business entities, financial risk, liquidity risk, credit risk, interest rate risk, currency risk, financial distress, credit constraint, trade credit, cash flow, indebtedness, stress-testing, risk analysis.

Kirish.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlari yuqori noaniqlik, o'zgaruvchan kredit sharoitlari, foiz stavkalari bosimi, xarajatlarning o'sishi va likvidlik tanqisligi sharoitida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa kichik va o'rta biznes segmentida moliyaviy risklar nafaqat foydaning pasayishi, balki investitsiya faolligining sekinlashuvi, aylanma mablag' tanqisligi va hatto faoliyatning uzilishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilot (IHTT)ning 2026-yilgi hisobotida yangi kichik va o'rta biznes kreditlari tiklana boshlagani, biroq kichik va o'rta biznes kreditlari umumiy qoldig'i hanuz sust ekani va bu holat firmalar likvidligi hamda investitsiyalariga bosim qilayotgani qayd etilgan (OECD, 2026).

Moliyaviy risklarning dolzarbligi, avvalo, tadbirkorlik subyektlarining tashqi moliyalashtirishga cheklangan kirishi bilan kuchayadi. Jahon bankining korxonalar darajasidagi tadqiqoti kichik va o'rta biznes subyektlari yirik firmalarga nisbatan ko'proq kredit chekloviga duch kelishini, ular investitsiya va aylanma mablag'ni moliyalashtirishda ko'proq savdo krediti hamda norasmiy manbalarga tayanishini ko'rsatadi (World Bank, 2026). Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ma'lumotiga ko'ra, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha global bo'shliq trillionlab dollar bilan o'lchanadi. Bu esa risklarni faqat korxonalar ichki muammosi sifatida emas, balki institutsional moliyaviy infratuzilma bilan bog'liq tizimli muammo sifatida ko'rishni talab qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklarni tahlil qilish amaliyotida ko'pincha alohida ko'rsatkichlar, masalan, likvidlik koeffitsienti yoki qarzdorlik darajasi o'rganiladi, biroq ularning o'zaro bog'liqligi, kreditga kirish, pul oqimlari, foiz xarajatlari va investitsion imkoniyatlarga birgalikdagi ta'siri yetarli darajada integratsiyalashtirilmaydi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklarning nazariy mazmunini ochib berish, ularni tasniflash, tahlil usullarini tizimlashtirish va boshqaruv bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklarning eng muhim boshlang'ich manbai moliyaga kirishdagi nomutanosiblikdir. Jahon bankining korxonalar bo'yicha tadqiqoti kichik va o'rta biznes subyektlari yirik firmalarga nisbatan ko'proq to'liq yoki qisman kredit chekloviga duch kelishini, firma hajmi oshgani sari kredit cheklovi ehtimoli kamayishini, kichik va o'rta biznes subyektlari investitsiya hamda aylanma mablag'ni moliyalashtirishda ko'proq savdo krediti va norasmiy manbalardan foydalanishini aniqlagan. Shu bilan birga, yuqori xususiy kredit/YaIM nisbatiga ega mamlakatlarda firmalar o'rtacha hisobda kamroq kredit chekloviga uchraydi. Bu xulosalar moliyaviy risk tahlilida tashqi moliyaviy muhitni albatta hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy riski ichki moliyaviy cheklovlar orqali izohlaydi. Jumladan, Mulier va boshqalar (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotda ro'yxatga olinmagan Yevropa kichik va o'rta biznes subyektlari misolida moliyaviy cheklovli firmalar qarz bo'yicha yuqoriroq foiz stavkalarini to'lashini hamda investitsiya qarorlarining ichki pul oqimlariga sezgirligi yuqoriroq bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risk tahlilining markazida nafaqat qarzdorlik hajmi, balki pul oqimlarining investitsiya va kundalik operatsiyalarni qoplash qobiliyati turishi kerakligini anglatadi.

So'nggi IHTT tahlillari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy risk muhitining pul-kredit sharoitlari bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Xususan, 2026-yilgi "kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish bo'yicha ko'rsatkichlar sharhi (Scoreboard)" hisobotida foiz stavkalari ayrim bozorlarda pasaya boshlagan bo'lsa ham, ular hanuz pandemiyagacha bo'lgan davrdan yuqori ekani, kichik firmalar uchun foiz stavkalaridagi pasayish yirik firmalarnikiga qaraganda sustroq kechayotgani va ayrim mamlakatlarda garov ta'minoti talablari kuchaygani ta'kidlangan (OECD, 2026). Hisobot, shuningdek, kreditning sust o'sishi likvidlik va investitsiyaga bosim o'tkazayotganini qayd etadi. Demak, kichik va o'rta biznes subyektlari

moliyaviy riskini tahlil qilishda foiz riski bilan birga garov ta'minoti va kredit shartlari riskini ham ko'rib chiqish zarur.

XMK materiallari moliyaviy riskning yana bir muhim qirrasini sifatida moliyalashtirish bo'shlig'i va instrumentlar xilma-xilligi yetishmasligiga urg'u beradi (IFC. SME, 2026). Xususan, tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun global moliyalashtirish bo'shlig'i taxminan 5,2 trillion dollarni tashkil etadi, shu bilan birga qarz, kapital, sindikatsiyalangan kreditlar, tashqi savdoni moliyalashtirish, strukturali moliya va risk-management mahsulotlari kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur instrumentlar hisoblanadi. Bu yondashuv moliyaviy risklarni faqat bank krediti nuqtayi nazaridan emas, balki moliya instrumentlari portfeli nuqtayi nazaridan tahlil qilish lozimligini ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan O'zbekiston moliya tizimining barqarorligini har tomonlama o'rganish natijasida tayyorlangan "*Moliya tizimi barqarorligini baholash*" hisobotida mikro, kichik va o'rta biznes subyektlariga kreditlar juda yuqori foiz stavkalarida berilayotganini, kredit riskini pasaytirish, kredit byurolari va reyestrlarini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish hamda bozor tamoyillariga asoslangan instrumentlar, masalan, qisman kredit kafolatlari va foiz stavkalarini ma'muriy cheklamasdan ishlaydigan kredit liniyalarini rivojlantirish samaraliroq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu xulosa moliyaviy risk tahlilida mikro darajadagi koeffitsiyentlar bilan birga institutsional va regulyativ muhitni ham kiritish kerakligini ko'rsatadi.

XVJning 2025-yilgi korporativ zaifliklar bo'yicha hujjatida esa qarz qiymati oshishi va salbiy makroiqtisodiy shoklar kombinatsiyasi korporativ defolt xavfini sezilarli kuchaytirishini ko'rsatadi (IMF, 2025). Tadbirkorlik subyektlari yirik korporatsiyalarga qaraganda bunday shoklarga kamroq bardosh bera olgani sababli, kichik va o'rta biznesda moliyaviy risk tahlili "*statik hisobot ko'rsatkichlari*" bilan cheklanmay, stress-senariylar yordamida ham amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil va mantiqiy sintez usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida tadbirkorlik subyektlaridagi moliyaviy risklar pul oqimlari va likvidlik, kapital tuzilmasi va qarzdorlik hamda tashqi moliyalashtirish imkoniyati va investitsiyalash shartlari kabi jihatlar nuqtayi nazaridan ko'rishga asoslandi. Negaki, ushbu jihatlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatini bir-biriga bog'liq bo'lgan tizim sifatida ko'rish imkonini beradi.

Metodologik nuqtayi nazardan moliyaviy risklar kreditga kirish riski, likvidlik riski, foiz stavkasi riski, qayta moliyalashtirish riski, qarzdorlik yuklamasi risk, valyuta riski va moliyaviy tanglik riski kabi guruhlariga ajratildi hamda har bir risk guruhi uchun mos tahlil usullari tanlandi. Jumladan, kreditga kirish riski uchun kredit cheklovi va garov ta'minoti talablari. Likvidlik riski uchun joriy likvidlik, pul oqimlari va overdraftga kirish. foiz riski uchun qarz narxi va foiz qoplash qobiliyati. qayta moliyalashtirish riski uchun qarz muddatlari profili hamda moliyaviy tanglik riski uchun esa salbiy ssenariylarda to'lovga qobiliyatlilik bahosi usullari tanlandi. Ushbu yondashuv IHTT, Jahon banki va XVJ manbalaridagi muammolarni yagona tahliliy modelga birlashtirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadbirkorlik subyektlarida yuzaga keluvchi moliyaviy risklarni tahlil qilish asosida aytish mumkinki, xo'jalik subyektlari faoliyatidagi boshlang'ich va eng kuchli moliyaviy risk turi - bu kreditga kirish riski hisoblanadi. Bu risk korxonaning bank krediti, kredit liniyasi, overdraft, lizing yoki boshqa tashqi moliya manbalariga yetarli hajmda, maqbul stavkada va maqbul ta'minot shartlarida kira olmasligi bilan namoyon bo'ladi. Jahon banki tadqiqoti kichik va o'rta biznes subyektlari ko'proq kredit chekloviga uchrashini hamda yirik firmalarga

nisbatan tashqi moliyaviy manbalardan kamroq foydalishini ko'rsatadi (World Bank. SMEs Finance, 2025). IHTT esa kreditning sust o'sishi kichik va o'rta biznes subyektlari likvidligi hamda investitsiyasiga salbiy ta'sir qilayotganini qayd etadi. Shunday ekan, kreditga kirish riski boshqa barcha moliyaviy risklar uchun "birlamchi trigger" vazifasini bajaradi.

Likvidlik riski kundalik operatsiyalarni moliyalashtirish uchun zarur naqd pul oqimi yetishmasligi, qisqa muddatli majburiyatlar va tushumlar o'rtasidagi nomutanosiblik, zaxiralar yoki debitor qarzlarni aylanishining sustligi sababli yuzaga keladi. Jahon bankining ayrim mamlakatlar bo'yicha so'nggi monitoring materiallari kichik firmalar aylanma mablag'ning katta qismini o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirayotganini, overdraft kabi moslashuvchan instrumentlardan foydalanish pastligini ko'rsatadi va bu holat likvidlik xavfini kuchaytiradi (World Bank. SMEs Finance, 2025).

Tadbirkorlik subyektlari ko'pincha qisqa va o'rta muddatli qarzlarni bilan ishlagan uchun foiz stavkalari o'zgarishi ularning xarajatlar bazasiga juda tez ta'sir qiladi va bu holat foiz stavkasi riskini yuzaga keltiradi. IHTT ma'lumotlariga ko'ra, 2024–2025-yillarda foiz stavkalari ayrim bozorlarda pasaya boshlagan bo'lsa-da, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun stavka pasayishi ko'pincha yirik firmalarga qaraganda sustroq kechgan, ayrim joylarda esa kichik biznes uchun kredit standartlari va garov ta'minoti talablari qattiqlashgan (OECD, 2026). Demak, foiz stavkasi riski tadbirkorlik subyektlari uchun "faqat stavka darajasi" emas, balki "stavka - bankning korxonaga qo'ygan shaxsiy "ustamasi" (spread) - garov ta'minoti" kombinatsiyasi sifatida tushunilishi kerak.

Agar tadbirkorlik subyekti qisqa muddatli qarzlarni ulushi yuqori bo'lgan kapital tuzilmasiga ega bo'lsa, muddat kelganda yangi qarz topolmaslik yoki uni ancha qimmat narxda jalb qilish ehtimoli ortadi. Bu holat esa qayta moliyalashtirish va qarzdorlik yuklamasi riskini yuzaga keltiradi. XVJning 2025-yilgi korporativ zaifliklar bo'yicha tadqiqoti qarz qiymati oshishi va salbiy talab "shok" holatlari korporativ defolt xavfini kuchaytirishini ko'rsatadi. Bu kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yanada dolzarb, chunki ular ko'pincha katta korporatsiyalar kabi uzoq muddatli obligatsiya yoki kapital bozori vositalariga ega emas (IMF, 2025).

Importga, xomashyo xaridiga yoki chet el valutarida qarz olishga tayanadigan tadbirkorlik subyektlari uchun almashuv kursi o'zgarishi nafaqat xarajatlarni, balki qarzga xizmat ko'rsatish yukini ham oshiradi va natijada valyuta riski vujudga keladi. Bu risk ayniqsa daromadi milliy valutada, majburiyatlari esa chet el valutarida bo'lgan firmalarda yuqori bo'ladi. XVJning O'zbekiston bo'yicha baholashi kapital bozori va moliyaviy vositalar hali chuqur rivojlanmagan sharoitda narxlash va moliyalashtirishning ayrim bo'g'inlari zaif qolayotganini qayd etadi (IMF, 2025). Bu esa valyuta riskini sug'urta qilish yoki xedjlash imkoniyatlarini ham cheklashi mumkin.

Moliyaviy risklarni amaliy tahlil qilishda birinchi navbatda pul oqimlari ko'rsatkichlari markazga qo'yilishi zarur. Tadbirkorlik subyektlarining foyda ko'rsatkichlari ijobiy bo'lsa ham, agar operatsion pul oqimi notekis bo'lsa, u likvidlik tanqisligi tufayli xavfli holatga tushishi mumkin. Shu bois pul oqimlari tahlili naqd tushum va to'lovlar dinamikasi, debitor va kreditor qarzlarni aylanishi, zaxira aylanishi va aylanma kapital sikli bilan uyg'un holda olib borilishi kerak. IHTT hamda Jahon banki manbalaridagi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun aynan likvidlik va aylanma mablag' muammolari investitsiya va o'sishga eng tez ta'sir qiluvchi moliyaviy bosim ekanini ko'rsatadi (OECD, 2026).

Kapital tuzilmasi va qarzdorlik yuklamasiga tegishli ko'rsatkichlar tadbirkorlik subyektlarida muhim bo'lgan ko'rsatkichlardan yana biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tarkibiga qarz/kapital nisbati, foizlarni qoplash koeffitsienti, qisqa muddatli qarz ulushi, qarz muddati profili va qarz xizmatiga sarflanayotgan pul oqimi ulushi kabilar kiradi. XVJning korporativ zaifliklar bo'yicha tahlili qarz qiymati oshishi banklar va kreditorlar uchun ham yo'qotish xavfini kuchaytirishini qayd etadi (IMF, 2025). Shu asosda aytish mumkinki,

qarzdorlikning “miqdori” bilan birga uning “narxi” va “muddati” ham tahlil markazida bo‘lishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatida kredit arizasining ma’qullanish darajasi, ta’minot talablari, foiz stavkasi, qo‘shimcha komissiyalar, overdraft mavjudligi, savdo krediti ulushi va norasmiy moliyaga tayanuvchanlik darajasi kabilar moliyaga kirish ko‘rsatkichlari asosiy qismi hisoblanadi. Jahon banki ma’lumotlari kichik va o‘rta biznes subyektlarining kreditga kirish ehtimoli pastroq, savdo krediti va norasmiy manbalarga tayanishi yuqoriroq ekanini ko‘rsatgani uchun, aynan shu indikatorlar tadbirkorlik subyekti moliyaviy risk profilini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi moliyaviy risklar va ularni vujudga keltiruvchi omillar turli xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli ushbu risk turlarining har biri o‘ziga xos yondashuv asosida tahlil qilish lozimdir. Shu nuqtayi nazardan quyida moliyaviy risklarni tahlil qilishning uchta yondashuv uslubi ko‘rib chiqamiz.

Birinchi yondashuv - koeffitsiyentlar tahlili bo‘lib, ushbu yondashuv orqali likvidlik, rentabellik, qarzdorlik va aktivlar aylanuvchanligini tezkor baholash mumkin. Biroq uning cheklovi shundaki, koeffitsiyentlar ko‘pincha o‘tgan davr holatini aks ettiradi va kredit shartlarining keskin o‘zgarishi yoki makroiqtisodiy shoklarni oldindan yetarli ko‘rsatmaydi. Shu sababli koeffitsiyentlar tahlili zarur, lekin yetarli emas.

Ikkinchi yondashuv - sensitivlik va ssenariy tahlilidir. Mazkur yondashuvda tushumning kamayishi, xomashyo narxining oshishi, foiz stavkasining ko‘tarilishi, valuta kursining o‘zgarishi yoki debitor qarzlarni qaytishining kechikishi kabi omillar simulyatsiya qilinadi. XVJ tadqiqoti qarz qiymati va talab shoklari kombinatsiyasi korporativ zaiflikni sezilarli oshirishini ko‘rsatgani sababli, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham “bazaviy”, “salbiy” va “og‘ir salbiy” ssenariylar asosida pul oqimi hamda qarz xizmatini baholash muhimdir.

Uchinchi yondashuv - moliyaviy cheklov va kreditga kirish tahlili hisoblanadi. Bunda firma qanchalik tashqi moliyaga bog‘liq ekani, kredit ololmaganda qaysi alternativ manbalarga o‘tishi, savdo krediti yoki o‘z mablag‘iga qanchalik tayanishi tahlil qilinadi. Jahon banki va XMK manbalari moliyalashtirish bo‘shlig‘i katta ekanini, kichik va o‘rta biznes subyektlarining ko‘p qismi bank kreditidan tashqarida qolayotganini va alternativ moliya kanallari rivojlanishi zarurligini ko‘rsatadi. Demak, tadbirkorlik subyekti risk tahlilida “pul ko‘rsatkichlari” bilan birga “moliya arxitekturasi” ham tahlil qilinishi kerak (World Bank Group, 2026).

Tahlil natijasiga ko‘ra, moliyaviy risklarni kamaytirishning eng birinchi mexanizmi sifatida aylanma kapitalni professional boshqarishni ta’kidlab o‘tish lozimdir. Debitor qarzlarni siyosatini qat’iylashtirish, zaxiralarni optimallashtirish, kreditor qarzlardan oqilona foydalanish va pul oqimlari kalendarini yuritish likvidlik riskini sezilarli pasaytiradi. Kichik firmalarda overdraft va moslashuvchan kredit liniyalari kam uchraydigan sharoitda bunday ichki boshqaruv choralari ayniqsa muhim bo‘ladi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish esa moliyaviy risklarni kamaytirishning ikkinchi mexanizmi hisoblanadi. Faqat bank kreditiga tayanish kredit siyosati qattiqlashganda korxonani zaif ahvolga tushiradi. Shu bois savdo krediti, lizing, faktoring, qisman kredit kafolatlari, kredit liniyalari va ayrim holatlarda kapitalga o‘xshash moliya vositalaridan foydalanish riskni yumshatadi. XVJ tomonidan O‘zbekiston bo‘yicha olib borilgan tahlillarda bozor tamoyillariga asoslangan qisman kredit kafolatlari hamda ochiq kredit liniyalari mikro, kichik va o‘rta biznes subyektlariga moliyaga kirishni barqaror kengaytirish uchun samaraliroq bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan.

Moliyaviy risklarni pasaytirishdagi navbatdagi mexanizm sifatida foiz va qarzdorlik riskini faol boshqarishni keltirib o‘tishimiz mumkin. Bu mexanizm qarz muddatlarini muvofiqlashtirish, qisqa muddatli qarz ulushini cheklash, foiz qoplash koeffitsientlari uchun ichki limitlar belgilash va qarz jalb qilishni pul oqimi prognozi bilan bog‘lash kabi choralarni amalga oshirishni nazarda tutadi. XVJning korporativ zaifliklar bo‘yicha tahlili aynan qarz narxi oshishi salbiy shoklar bilan birga defolt xavfini kuchaytirishini ko‘rsatgani sababli, kichik va

o'рта biznes subyektlari uchun ham "qarz olish mumkinligi" emas, "qarzga xavfsiz xizmat ko'rsatish qobiliyati" asosiy mezon bo'lishi kerak.

Kredit infratuzilmasi va moliyaviy savodxonlikni yaxshilash moliyaviy risklarni minimallashtirishning to'rtinchi mexanizmi bo'lib, XVJning O'zbekistonga oid hisobotida kredit byurolari va reyestrlarini kengaytirish, raqamlashtirish, aktivlarni to'g'ri tasniflash, moliyaviy savodxonlik va iste'molchi himoyasini kuchaytirish orqali mikro, kichik va o'рта biznes subyektlari uchun kredit riskini pasaytirish mumkinligi qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, moliyaviy risklarni kamaytirish faqat firmalarning ichki vazifasi emas, balki u kredit axboroti sifati, sud tizimi, garov ta'minoti reyestri va bozor institutlari sifati bilan ham chambarchas bog'liq.

Yuqoridagi tahlillar asosida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy risklarga bardoshlilik va moliyaviy xavfsizligi faqat bir omil natijasida emas, balki operatsion pul oqimi yetarli bo'lishi, qarzdorlik yuklamasi xizmat ko'rsatish qobiliyatidan oshib ketmasligi hamda tashqi moliya manbalari uzilib qolsa, firma alternativ kanallarga ega bo'lishi kabi omillar majmuasi natijasida ta'minlanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan quyida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy risklarga bardoshlilikni baholashning integratsiyalashgan skoring modeli ishlab chiqildi.

$$MRR = PB + KTS + MK$$

Bu yerda,

MRR - moliyaviy risk rezistentlik

PB - pul oqimi barqarorligi

KTS - kapital tuzilmasi sifati

MK - moliyaga kirish imkoniyati

Ushbu model tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy jihatdan xavfsiz hisoblanishi uchun uch shart bir vaqtning o'zida bajarilishi lozimligini nazarda tutadi va bu yondashuv Jahon bankining kredit cheklovi haqidagi xulosalari, IHTTning likvidlik va investitsiyaga bosim haqidagi baholari hamda XVJning qarz qiymati oshishi bilan bog'liq zaifliklar haqidagi natijalarini yagona tizimga birlashtiradi (OECD, 2026).

Mazkur integratsiyalashgan model amaliy jihatdan tadbirkorlik subyektlari moliyaviy risk tahlilini uch bosqichda olib borishi kerakligi anglatadi. Birinchi bosqichda ichki moliyaviy hisobotlar asosida likvidlik va pul oqimi baholanadi. Ikkinchi bosqichda qarz portfeli va foiz yuklamasi tahlil qilinadi. Uchinchi bosqichda esa tashqi moliyalashtirish sharoitlari ya'ni kredit narxi, garov ta'minoti, kredit liniyalari, lizing va boshqa manbalar tekshiriladi. Faqat shu uch bosqich natijalari birlashtirilgandagina tadbirkorlik subyektlarining haqiqiy moliyaviy risk profili aniqlanadi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklar ko'p qirrali bo'lib, ularni faqat qarzdorlik yoki foydalilik ko'rsatkichlari orqali tushuntirib bo'lmaydi. Asosiy risklar qatoriga kreditga kirish riski, likvidlik riski, foiz stavkasi riski, valyuta riski, qayta moliyalashtirish riski va moliyaviy tanglik xavfi kiradi. Xalqaro manbalar kichik va o'рта biznes korxonalarini yirik xo'jalik subyektlariga nisbatan ko'proq kredit chekloviga uchrashini, ko'proq savdo krediti va norasmiy moliyaga tayanishini, kredit o'sishining sustligi esa likvidlik hamda investitsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklarni tahlil qilish integratsiyalashgan yondashuvga tayanishi lozim. Mazkur yondashuvga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy risk rezistentligi pul oqimi barqarorligi, kapital tuzilmasi sifati va moliyaga kirish imkoniyatining uyg'unligidan shakllanadi. Shu sababli moliyaviy risk tahlili koeffitsiyentlar, ssenariylar, qarz profili va moliya infratuzilmasi omillarini birgalikda qamrab olishi zarur.

Amaliy takliflar sifatida, birinchidan, tadbirkorlik subyektlarida pul oqimlari monitoringi va aylanma kapitalni boshqarish tizimi kuchaytirilishi lozim. Ikkinchidan, bank kreditiga haddan tashqari tayanishni kamaytirish uchun lizing, faktoring, savdo krediti, qisman kredit kafolatlari va boshqa moslashuvchan manbalardan foydalanish kengaytirilishi kerak. Uchinchidan, qarz jalb etishda foiz qoplash va qayta moliyalashtirish xavfi uchun ichki limitlar joriy etilishi maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, kredit byurolari, garov ta'minoti reyestrlari va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining tashqi moliyaga kirish sifati yaxshilanishi zarur. Beshinchidan, salbiy ssenariylarda defolt xavfini oldindan ko'rish uchun stress-test va ssenariy tahlili kichik va o'rta biznes subyektlari amaliyotiga joriy etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risk tahlili passiv hisob-kitob emas, balki barqaror o'sish, investitsion faollik va bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydigan strategik boshqaruv instrumentidir. Aynan shuning uchun moliyaviy risklarni tahlil qilish korxonada boshqaruvining periferik emas, markaziy funksiyasiga aylanishi kerak.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/References:

IFC (2026) SME Finance Investment Services. Washington, DC: International Finance Corporation.

International Monetary Fund (2025a) Corporate Sector Vulnerabilities and High Levels of Interest Rates. Departmental Paper No. DP/2025/001. Washington, DC: IMF.

International Monetary Fund (2025b) Republic of Uzbekistan: Financial System Stability Assessment. Country Report No. 25/145. Washington, DC: IMF.

Kuntchev, V., Ramalho, R., Rodríguez-Meza, J. and Yang, J. (2014) What Have We Learned from the Enterprise Surveys Regarding Access to Finance by SMEs? Washington, DC: World Bank.

Mulier, K., Schoors, K. and Merlevede, B. (2016) 'Investment-cash flow sensitivity and financial constraints: Evidence from unquoted European SMEs', Journal of Banking & Finance, 73, pp. 182–197.

OECD (2026) Financing SMEs and Entrepreneurs 2026: An OECD Scoreboard. Paris: OECD Publishing.

World Bank (2025) Unlocking Finance for Micro, Small and Medium-sized Enterprises: Lao PDR Economic Monitor 2025, Thematic Chapter. Washington, DC: World Bank.

World Bank (2026) SMEs Finance. Washington, DC: World Bank Group